

**IDIOMALARNI GAP KOMPONENTLARI VA DIFFERENSIAL
SINTAKTIK-SEMANTIK BO‘YICHA TAHLIL QILISH**

(Mario Pyuzoning “Cho ‘qintirgan ota” asari originali misolida)

Latipova Soniya Shokir qizi,

TIQXMMI Milliy universiteti, O‘qitish
nazariyasi va metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi

latipovasoniya@126gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14205348>

Annotatsiya. Ushbu tezisda Mario Pyuzoning “Cho ‘qintirgan ota” (*The Godfather*) asaridagi idiomalarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilib, ularning gap komponentlari bo‘yicha tahlili amalga oshirilgan. Idiomalarning tarkibi va ularning ma‘no qatlamlarida yuzaga keladigan semantik o‘zgarishlar, hamda ularning kontekstda qanday qo‘llanilishiga qarab sintaktik tahlili ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot orqali original asardagi idiomalarning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilib, ular qahramonlarning xarakterini va asarning umumiy mazmunini ochib berishda qanday rol o‘ynashi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: idiomalar, gap komponentlari, semantik tahlil, sintaktik tahlil tarjima nazariyasi, Mario Pyuzo, “Cho ‘qintirgan ota”.

Abstract. This thesis examines the idioms in Mario Puzo’s novel “The Godfather” from a linguistic perspective, analyzing them in terms of sentence components. It explores the structure of the idioms and the semantic shifts that arise within their layers of meaning, as well as their syntactic analysis based on how they are used in context. Through this research, the unique characteristics of the idioms in the original work are revealed, highlighting the role they play in characterizing the protagonists and contributing to the overall meaning of the novel.

Keywords: idioms, sentence components, semantic analysis, syntactic analysis, translation theory, Mario Puzo, *The Godfather*.

Idiomalarni gap komponentlari nuqtayi nazaridan tahlil qilish tilshunoslikda alohida o‘rin tutadi, chunki ular o‘ziga xos semantik va uslubiy xususiyatlarga ega murakkab ifodalardir. Idiomalar, mustaqil ma'noga ega bo‘lmagan leksik birlik sifatida qaralib, ularning mazmuni ko‘pincha tarkibiy qismlarining aniq semantik ma'nosidan kelib chiqmaydi. Shu sababli, bu kabi ifodalarni o‘rganishda ular tarkibiy qismlarga ajratilmasdan, yaxlit bir ma'noni ifodalovchi lingvistik birlik sifatida tadqiq etish muhimdir. Asosan, ularning boshqa tillarga tarjimasi jarayonida yanada dolzarb bo‘lib, asl mazmunning izchil va kontekstual ravishda ifodalanishini ta‘minlaydi.

Bir sintaktik aloqa asosida gapda ishtirok etgan sintaktik birlik bir valentli, ikki sintaktik aloqa asosida – ikki valentli, uch 20 sintaktik aloqa asosida – uch valentli komponent hisoblanadi. Mazkur sintaktik aloqalarni aniqlash uchun yunksion modellardan foydalanamiz. Gap qurilmasi komponentlarga ajratib sintaktik tahlil

qilinganda, avvalambor, gap tarkibi sintagmatik yo‘nalishda, sintaktik birliklarning o‘zaro sintaktik aloqalari yunksion modellar va ularning differentsial sintaktik belgilar hamda morfologik xususiyatlari komponent modellarida ko‘rgazmali ravishda ifoda etilsa, tadqiqotchilar valentlik haqidagi mavhum tushunchalardan holi bo‘lar edi [2,20].

Tilshunoslikda gap nutq birligi hisoblanadi, shu sababli uning sintaktik tahlili nutq lingvistikasi qonun-qoidalari asosida amalga oshirilishi lozim. Hozirgi paytda nutq lingvistikasi qonun-qoidalari endigina ilmiy asoslanmoqda va ularning nazariy rivojlanishi davom etmoqda. Shu bois, gapning struktura sifatida bir butunligini ta‘minlaydigan bevosita ishtirokchi elementlarning tildan nutqqa o‘tish jarayonida qanday sintaktik faoliyatga ega bo‘lishi, shuningdek, sintagmatik zanjirning shakllanishidagi o‘rni hali yetarlicha izohlanmagan. Gap bo‘laklari nazariyasiga tayanuvchi an‘anaviy sintaktik tahlilning zaif tomonlari borligi haqida ba‘zi tilshunoslar o‘z fikrlarini bildirgan bo‘lsalar-da, bu borada sezilarli o‘zgarishlar hali amalga oshirilmagan. Bu masalaga oid rus tilshunosi Z.D. Popova an‘anaviy sintaksis haqidagi qarashlarda mavjud qarama-qarshiliklarni tilga olib, ularning sintaksis mutaxassislarini takroriy qayta ko‘rib chiqishga undaganini ta‘kidlaydi: “Традиционное учение о членах предложения содержало в себе такие противоречия, которые постоянно побуждали синтаксистов к его пересмотру” [5,69].

Gapdagi sintaktik aloqalarni aniqlashda ikki xil yondashuv mavjud: formal-morfologik va funksional-sintaktik. Yuqorida ko‘rib chiqilgan sintaktik aloqalar formal-morfologik nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Bizning fikrimizcha, sintaktik aloqalarni funksional-sintaksis asosida tahlil qilish zarur. Ushbu tadqiqot ishida gap tarkibidagi komponentlarning o‘zaro sintaktik aloqalari yunksion modellardan foydalanilgan holda modellashtiriladi. “Yunksion model” termini lotin tilidagi “junction” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida bog‘lanish, aloqa ma’nolarini anglatadi. [4, 68- 69].

Keng qo‘llanilgan sintaktik aloqalar mazmuniga to‘xtalib, gap tarkibida ishtirok etgan sintaktik birliklarning o‘zaro sintaktik aloqalarini ko‘rgazmali ravishda yunksion modellar yordamida ifodalaymiz, ya’ni ularda yadroviy predikativ, subordinativ, koordinativ, nolga teng predikativ, introduktiv, noyadroviy predikativ, appozitiv aloqalar aniqlanadi. Yadro predikativ aloqaning muhim xususiyatlari, asosan, ikki asosiy hodisa bilan uzviy bog‘liqdir. Ma’lumki, predikativlik deganda,

ega va kesimning o‘zaro birikishi asosida shakllanadigan gapning mazmuni bilan real voqelik o‘rtasidagi bog‘lanishning til vositalari orqali ifodalanishi tushuniladi. Yadro predikativ aloqaning boshqa sintaktik aloqalardan farqlanadigan jihati shundaki, u boshqa sintaktik aloqalarga bo‘ysunmagan holda mustaqil ravishda tugallangan fikrni anglatish xususiyatiga ega gap sifatida shakllana oladi. Bundan tashqari, yadro predikativ aloqa teng huquqli ikkita yadro komponentini o‘zaro biriktiradi va mazkur komponentlarni o‘zaro bog‘lash natijasida o‘z ifodasini topadi [2,23]. Yadro predikativ aloqaning ushbu ikki teng huquqli yadro komponentni izchil ravishda birlashtirishi sababli, yunksion modellarda u ikki tomonlama yo‘naltirilgan va ikki tomonlama ko‘rsatiladigan indikator yordamida belgilanadi.

Gapning sintaktik qatlamini tahlil qilganda, unda ega yoki kesimning o‘rni va ahamiyati haqidagi masalalar ayrim munozaralarga sabab bo‘ladi. A. G‘ulomov va M. Asqarova bu borada shunday fikr bildiradilar: “Bosh bo‘laklar gapning asosini tashkil etib, ular gap konstruktsiyasining markaziy elementlari hisoblanadi. Ular gapdagi ikki asosiy markazdir. Biroq bosh bo‘laklar ba‘zan o‘zlari mustaqil gapni tashkil qilishi mumkin bo‘lsa-da, ayrim holatlarda ulardan to‘liq fikr ifodalanmaydi.” Ushbu olimlar, shuningdek, ega grammatik jihatdan hokim tarkibning markazi ekanini va tobe tarkibda bosh bo‘lak sifatida kesimga ham ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlashadi. [7,72- 77.].

Gap qurilmasini komponentlarga ajratib tahlil qilishda, har bir sintaktik bo‘lakning gap ichidagi o‘rni, vazifasi va morfologik xususiyatlari aniqlanadi. Bu jarayon gapning tashqi tuzilishini ochib beradi, ya’ni gapdagi komponentlarning tashqi aloqalari va morfologik jihatlari o‘rganiladi. Ammo gapni sintaksemlar asosida tahlil qilish jarayonida esa sintaktik birliklarning kategorial va nokategorial sintaktik-semantik belgilari aniqlanadi. Bu jarayon gapning chuqur semantik qatlamini tushunishga yordam beradi va gapning ichki, ya’ni semantik tarkibiy tuzilishini ochib beradi.

Yadro predikativ aloqa esa gapning asosiy tarkibini tashkil etuvchi komponentlar orasidagi o‘zaro bog‘lanishni ta’minlaydi. Bu aloqa orqali ega va kesim orasidagi markaziy munosabat shakllanadi. Ushbu markaziy munosabat gapning asosiy struktur tuzilishi sifatida namoyon bo‘lib, uni boshqa sintaktik aloqalardan ajratib turadigan asosiy xususiyat hisoblanadi. Ya’ni, boshqa sintaktik aloqalar gapning asosiy markazini tashkil etishga qodir emas; ular nisbatan yordamchi yoki ikkilamchi ahamiyatga ega va yadro predikativ aloqaga bo‘ysunadi.

Shu sababli, boshqa sintaktik aloqalar nisyoqda nolyadr hisoblanadi va ular gapning asosiy tuzilmasi sifatida emas, balki qo‘shimcha vazifalarni bajaruvchi yordamchi aloqalar sifatida maydonga chiqadi. [3, 39].

Sintaksemaalarga ajratib tahlil qilishda shunisi muhimki, bir xil yunksion va komponent modellarga tushgan gaplarda turli xil differensial sintaktik va semantik belgilar mujassamlashgan holatni ko‘rishimiz mumkin. Umuman, gapdagi elementlarni sintaksemaalarga ajratib tahlil qilish har bir elementning u yoki bu o‘rinda sintaktik qatlamdagi semantik maydonini aniqlashda namoyon bo‘ladi. Masalan, muayyan element har ikkala tilda turlicha komponentli gaplarda turli o‘rinlarda kelib, har xil semantik maydonga ega bo‘lishi mumkin.

Bizning sintaktik valentlikka yondashuvimiz shunisi bilan boshqalardan farq qiladiki, gap tarkibida har bir sintaktik birlik (qaysi so‘z turkumi ekanligining ahamiyati yo‘q) valentlikka ega bo‘lishi mumkin va sintaktik birliklarning valentligi ular bog‘langan sintaktik aloqalar sonidan kelib chiqib aniqlanadi. Bir sintaktik aloqa asosida gapda ishtirok etgan sintaktik birlik bir valentli, ikki sintaktik aloqa asosida – ikki valentli, uch yoki undan ko‘p sintaktik aloqa asosida – uch valentli komponent hisoblanadi. Mazkur sintaktik aloqalarni aniqlash uchun yunksion modellardan foydalanamiz. Gap qurilmasi komponentlarga ajratib sintaktik tahlil qilinganda, avvalo, gap tarkibi sintagmatik yo‘nalishda, sintaktik birliklarning o‘zaro sintaktik aloqalari yunksion modellar va ularning differensial sintaktik belgilari hamda morfologik xususiyatlari komponent modellarida ko‘rgazmali ravishda ifoda etilsa, tadqiqotchilar valentlik haqidagi mavhum tushunchalardan holi bo‘lar edi [2,19].

Gap tarkibida infinitiv yadro predikativ 1 (NP_1) o‘rnida kelganda kategorial differensial sintaktik – semantik belgilardan protsesuallikni ifodalasa, nokategorial belgilardan esa aktivlik yoki stativlikni ifodalashi mumkin. Undan tashqari yadro predikativ aloqa asosida qanday sintaksema bilan bog‘lanishiga qarab o‘ziga qo‘shimcha semantik belgilarni ham qamrab olishi mumkin

M. Pyuzoning original asaridagi idiomalarni quyida keltirilgan yadro predikativ (NP_1 , NP_2 , ND) misolida tahlil qilar ekanmiz, ularning gapdagi sintaktik va semantik vazifalarini, shuningdek, mazmunini qay darajada ta’sirli yetkazishini aniqlaymiz. Bunda har bir idiomaning predikativ yadrosi orqali voqe‘likka munosabati, shuningdek, boshqa gap komponentlari bilan bog‘lanish usullari tadqiq qilinadi, bu esa idiomalarning asardagi umumiy mazmun va obrazlarga ta’sirini yoritish imkonini beradi.

- 1)... our *button men* won't *nail* him (page 100)
- 2) He made no *empty promises* (page 9)
- 3) Anyway, I haven't been able to set up a top- notch *go-between* he'll trust (page 100)
- 4) It was one of the penalties for being the Don's *hatchet man* (page 27) [1].

Mazkur misollarda yadroviy va noyadroviy aloqaga kirishgan gap bo'lak o'rnida kelgan sintaktik birlik yordamida ishtirok etishini nazarda tutib, ushbu sintaktik birliklarning differensial sintaktik-semantik belgilarini aniqlash bilan cheklanamiz.

Quyida keltirilgan idiomalarning differensial sintaktik-semantik tahliliga ko'ra kategorial Sb-subtansial (ot yoki shaxs ma'nosi) turiga kiruvchi idomalarga misol sifatida oldik.

1.Yadroviy sintaksis aloqaga kirishgan *button men* (NP₁ – yadro predikativ 1-kategorial sintaktik-semantik belgilardan (Sb) substansiallikni ifodalaydi. Nokategorial belgilarda esa (Qlt) kvalitatiflik va (Ag) agentivlikni ifodalaydi. Shu gapdagi ikkinchi idioma esa *nail* yadroviy aloqaga kirishib (NP₂ – yadro predikativ 2), kategorial sintaktik-semantik belgilardan (Pr)protsessuallikni, nokategorial belgilardan esa (Ac)aksional harakatni ifodalab kelyapdi.

Bu yerda *button man* idiomasi mafialar orasida qora ishlarni bajarib yuruvchi shaxs ya'ni yollanma qotil obrasini tasvirlab kelgan. Bu orqali yozuvchi qotilni yanada kitobxoniga tanishtirishni oydinlashtirgan.

2.Noyadroviy aloqaga kirishgan *empty promises* (ND – noyadroviy tobe bo'lak: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) kategorial sintaktik-semantik belgilardan (Sb) substansiallikni, nokategorial belgilardan esa (DsC) diskursiv (shaxs yoki predment haqida), (Ng)negativlik inkor ma'no orqali berilyapdi.

Ushbu gapdagi *empty promise* iborasi nafaqat filmdagi balki asar tarjimasida ham juda mashhur idiomalardan biri sifatida qaraladi. Yozuvchi bu orqali bosh qahramonni bir so'zli u aytdimi demak albatta bajaradi degan ma'noda kitobxoniga yanada yorqin obraz sifatida ta'riflab bergan.

3. Quyidagi misolda noyadroviy aloqaga kirishgan (ND - noyadroviy tobe bo'lak: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) kategorial sintaktik-semantik belgilardan (Sb) substansiallikni, nokategorial belgilardan esa (Ob) obyektivlikni ya'ni harakat o'tadigan shaxs yoki predmetni ifodalab kelyadi.

Go-between idomasini vositachi ma'nosini bildirib kelyapdi. Bu ikki tomon o'rtasida muloqotni (asarda ikkila mafia oilalari nazarda tutulmoqda) amalga

oshiradigan yoki vositachilik qiladigan kishini anglatadi, ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish qiyin bo‘lgan holatlarda ishlatiladi. “Go-between” so‘zining ma‘nosi “go” va “between” so‘zlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nolaridan kelib chiqmaydi, shuning uchun bu ibora idiomatik ifodadir.

4. Navbatdagi iboramiz noyadroviy aloqaga kirishgan (NP₂- yadro predikativ) . *Hatchet man* kategorial sintektik belgilardan (Sb) substansial, nokategorial belgilardan esa (Cs) kauzal sabab ya’ni bunda gapning ... *for being the Don’s hatchet man* qismi hammasi birgalikda bir xil vazifani bildirib turganligi sababli ularni tahlil jarayonida birga qabul qilamiz. Hamda (Dsc) diskursiv ma’no (shaxs va predmet haqida) borligini ham ko‘rishimiz mumkin.

Hatchet man kimningdir nomidan kirli yoki yoqimsiz ishlarni bajaruvchi shaxsni anglatadi, ko‘pincha agressiv yoki shafqatsiz harakatlarni o‘z ichiga olib keluvchi ibora sanaladi. Bu yerda u “Don” (ehtimol, mafiya boshlig‘i yoki qudratli shaxs) uchun ishlashini va uning nomidan murakkab yoki axloqiy jihatdan shubhali vazifalarni bajarishini anglatadi.

Gap tuzilishini tahlil qilishda, gap komponentlarining o‘zaro bog‘lanishlarini ajratib ko‘rish juda muhimdir va bu bog‘lanishlarning har biri o‘zgacha ahamiyat kasb etadi. Gapdagi sintaktik birliklar orasidagi mavjud sintaktik aloqalarni belgilash, ushbu komponentlarning sintaktik xususiyatlarini farqlash imkonini beradi. Bu kabi farqlarni aniqlash uchun sintagmatik yo‘nalishda komponentlarni kontrastlashtirish usulidan foydalaniladi. [6, 47-48].

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, yadro predikativ aloqa boshqa sintaktik aloqalarga tobe bo‘lmasdan, o‘zi nisbatan tugal fikrni anglatuvchi teng huquqli bo‘lgan ikki yadro komponentni o‘zaro bog‘laydi. Ya’ni, yadro predikativ aloqa gapning asosiy qurilishini hosil qiladi. Qolgan sintaktik aloqalar esa noyadroviy hisoblanib, ular tobe komponentlarni hokim komponentlarga bog‘laydigan sintaktik aloqalardir. Yadro predikativ aloqa gapda mustaqil va tugal mazmunga ega ikkita asosiy komponentni bog‘lash orqali gapning asosiy tuzilishini tashkil qiladi. Boshqa sintaktik aloqalar esa yordamchi bo‘lib, tobe komponentlarni bosh komponentlarga bo‘ysundiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Puzo. Godfather Copyright, 1969, – 400 p
2. Асадов Р.М. Инглиз тили содда гап курилмаларида моновалентли ва поливалентли компонентларнинг синтаксем тахлили Филол. фан. номзоди. дисс. – Тошкент, 2018. - 181б

3. Қаюмова М.С. Инглиз ва ўзбек тилларида негативлик категориясининг синтаксем тадқиқи. Филол. фан. номзоди. дисс. – Самарқанд, 2010.-155б.
4. Мухин А.М. Модели внутринных синтаксических связей предложений // Вопросы языкознания. – Москва: 1970. – №4. – С.68-80
5. Попова З.Д. Может ли обойтись синтаксис без учения о членах предложения // Вопросы языкознания, № 5, 1984. – С. 69.
6. Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. – Москва: Лит. на иностр. яз., 1957. - 286с.
7. Турниёзова К. Гапнинг учинчи даражали бўлаклари ва «монема» тушунчаси ҳақида баъзи мулоҳазалар // Хорижий филология. № 2, 2007. Б.81-85.